IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

FUQAROLIK HUQUQIDA RAQAMLI (ELEKTRON) SHARTNOMALARNING HUQUQIY TABIATI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH MUoMMOLARI

Samadova Shohida Nabijon qizi

Termiz Davlat universiteti Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik huquqida raqamli (elektron) shartnomalarning huquqiy tabiati, ularni tuzish, ijro etish va bekor qilish bilan bog‘liq nazariy hamda amaliy masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, elektron hujjat, elektron raqamli imzo, elektron tijorat va raqamli platformalar faoliyatining fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ta'siri yoritilgan. Elektron shartnomalarni tuzishda taraflarning erkin irodasini ifodalash, elektron dalillarning sudlarda baholanishi, transchegaraviy elektron bitimlar hamda "aqlli kontraktlar" (smart contracts)ning huquqiy maqomi ilmiy nuqtai nazardan tahlil etilgan. Tadqiqot davomida amaldagi qonunchilikdagi ayrim bo‘shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Muallif raqamli iqtisodiyot sharoitida fuqarolik qonunchiligini zamonaviy axborot texnologiyalari rivojiga mos ravishda takomillashtirish zarurligi haqida xulosaga kelgan.

Kalit so‘zlar: raqamli shartnoma, elektron hujjat, elektron imzo, fuqarolik huquqi, elektron tijorat, raqamli platformalar, smart contract, elektron dalillar, shartnoma erkinligi.

So‘nggi yillarda dunyoda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmuni va shakliga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Internet texnologiyalari, elektron tijorat platformalari, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlarning keng qo‘llanilishi natijasida shartnomalar tobora ko‘proq elektron shaklda tuzilmoqda. Natijada an'anaviy yozma shartnomalar o‘rnini elektron hujjatlar, elektron identifikatsiya vositalari va elektron raqamli imzo orqali rasmiylashtiriladigan bitimlar egallamoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu sababli elektron hujjatlar, elektron tijorat va elektron imzo bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilinib, fuqarolik muomalasining raqamlashtirilishi uchun zarur huquqiy asoslar yaratildi1

Fuqarolik huquqida shartnoma taraflarning o‘zaro kelishuviga asoslangan yuridik fakt hisoblanadi. Elektron shartnomalarda ham mazkur prinsip saqlanib qoladi, biroq taraflarning irodasi qog‘oz hujjatda emas, balki elektron axborot tizimi orqali ifodalanadi. Elektron shartnomaning haqiqiyligi ko‘pincha elektron imzo, autentifikatsiya vositalari yoki axborot tizimlaridagi elektron tasdiqlash mexanizmlari orqali belgilanadi. Shu sababli elektron shartnomalarning huquqiy tabiati an'anaviy fuqarolik-huquqiy institutlarning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi natijasida shakllanayotgan yangi huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda .

Bugungi kunda bank xizmatlari, sug‘urta, transport, aloqa, davlat xizmatlari va elektron savdo platformalarida millionlab shartnomalar insonlarning bevosita uchrashuvisiz, masofadan turib tuzilmoqda. Mazkur holat fuqarolik muomalasining tezkorligini oshirayotgan bo‘lsa-da, elektron shartnomalarning haqiqiyligi, elektron dalillarning sudlarda baholanishi, shaxsni identifikatsiya qilish, ma'lumotlar xavfsizligi va transchegaraviy nizolarni hal etish kabi qator yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda ham elektron tijorat

1 https://lex.uz/docs/16679

rivojlanishi bilan elektron shartnomalarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi2. Mazkur maqolaning maqsadi fuqarolik huquqida elektron shartnomalarning huquqiy tabiatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularni tartibga solishda mavjud muammolarni aniqlash hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Fuqarolik huquqida shartnoma taraflarning huquq va majburiyatlarini vujudga keltiruvchi, o‘zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi asosiy yuridik faktlardan biri hisoblanadi. Elektron shartnoma ham o‘zining huquqiy mohiyatiga ko‘ra an'anaviy shartnomadan farq qilmaydi. Ularning asosiy farqi shartnomaning mazmunida emas, balki uni tuzish shakli, taraflarning irodasini ifodalash usuli hamda hujjat almashinuvi vositalaridadir. Shuning uchun elektron shartnomalar fuqarolik huquqidagi shartnoma institutining zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishi sifatida baholanadi.

Fuqarolik kodeksida belgilangan shartnoma tuzishning umumiy qoidalari elektron shartnomalarga ham tatbiq etiladi. Elektron shaklda tuzilgan bitim ham taraflarning erkin va ongli ravishda bildirgan roziligi mavjud bo‘lsa, yuridik kuchga ega hisoblanadi. Biroq elektron muhitda shaxsni identifikatsiya qilish, rozilikni tasdiqlash hamda elektron axborotning o‘zgarmaganligini kafolatlash alohida huquqiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli elektron hujjat va elektron imzo institutlari elektron shartnomalarning ajralmas elementi hisoblanadi.

Elektron hujjatning qog‘oz shaklidagi hujjat bilan teng yuridik kuchga ega ekanligi milliy qonunchilikda mustahkamlangan. Bu esa fuqarolik muomalasida elektron hujjatlardan keng foydalanish uchun huquqiy asos yaratadi. Amaliyotda bank kreditlari, onlayn sug‘urta shartnomalari, elektron davlat xaridlari hamda internet-do‘konlar faoliyatida aynan elektron hujjatlar asosiy vosita sifatida qo‘llanilmoqda3.

Elektron shartnomalarning haqiqiyligini ta'minlashda elektron imzo muhim huquqiy vosita hisoblanadi. Elektron imzo nafaqat hujjatni imzolagan shaxsni aniqlash, balki hujjat mazmuniga keyinchalik o‘zgartirish kiritilmaganligini tasdiqlash vazifasini ham bajaradi. Shu bois elektron imzo fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida e'tirof etiladi. Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, foydalanuvchi akkaunti orqali uchinchi shaxs tomonidan shartnoma tuzilishi, elektron imzo kalitining noqonuniy qo‘lga kiritilishi yoki shaxsni identifikatsiya qilishdagi texnik nosozliklar elektron bitimning haqiqiyligi yuzasidan nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, mobil ilovalar yoki internet platformalarida "Bir tugmani bosish" (Click-wrap agreement) yoxud "Rozi bo‘laman" (I Agree) tugmasi orqali tuziladigan shartnomalarda foydalanuvchining shartnoma shartlari bilan haqiqatan tanishganligini isbotlash murakkablashadi.

Bugungi kunda Amazon, Google, Apple, Microsoft kabi yirik xalqaro kompaniyalar ham aynan standart elektron shartnomalardan foydalanadi. Foydalanuvchi xizmatdan foydalanishdan oldin shartlarni qabul qilishi talab etiladi, biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, foydalanuvchilarning aksariyati mazkur shartlarni to‘liq o‘qimasdan qabul qiladi. Natijada shartnoma erkinligi prinsipi formal ravishda ta'minlangan bo‘lsa-da, iste'molchining haqiqiy irodasi va huquqiy xabardorligi masalasi bahsli bo‘lib qolmoqda. Shu sababli ko‘plab xorijiy

2 https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/modellaw/electronic_commerce

3 https://lex.uz/docs/16679

davlatlarda elektron shartnoma shartlarining sodda va tushunarli tilda bayon etilishi majburiy talab sifatida belgilanmoqda4 . Elektron shartnomalarni rivojlantirish bilan bir qatorda elektron identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish, biometrik autentifikatsiya vositalaridan foydalanish hamda elektron imzo infratuzilmasining xavfsizligini kuchaytirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu nafaqat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi, balki raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan ishonchni ham oshiradi.

Elektron shartnomalarning amaliyotda keng qo‘llanilishi ularni ijro etish bilan bog‘liq yangi huquqiy munosabatlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy shartnomalarda taraflarning joylashgan manzili, shaxsini aniqlash va majburiyatlarning bajarilganligini tekshirish nisbatan oson bo‘lsa, elektron shartnomalarda bunday masalalar murakkabroq tus oladi. Ayniqsa, shartnoma taraflarining turli davlatlarda joylashganligi, to‘lovlarning xalqaro elektron tizimlar orqali amalga oshirilishi hamda xizmatlarning internet orqali ko‘rsatilishi nizolarni hal etishda huquqni qo‘llash amaliyotini murakkablashtirmoqda.

Transchegaraviy elektron shartnomalarda eng muhim masalalardan biri – qaysi davlat qonunchiligi qo‘llanilishi va qaysi davlat sudi nizoni ko‘rib chiqishi masalasidir. Amaliyotda ko‘plab xalqaro elektron platformalar foydalanuvchi shartnomasiga nizolar faqat ma'lum bir davlat sudi yoki arbitraj organida ko‘rib chiqilishi haqidagi shartni kiritadi. Bunday holat, ayniqsa, oddiy iste'molchilar uchun o‘z huquqlarini himoya qilishni murakkablashtiradi, chunki ular chet davlat sudlarida da'vo qo‘zg‘atish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi mumkin.

Raqamli platformalar orqali tuzilayotgan shartnomalarda yana bir dolzarb muammo – elektron dalillarning sud tomonidan baholanishidir. Elektron pochta yozishmalari, SMS-xabarlar, messenjerlar orqali yuborilgan xabarlar, IP-manzillar, server log-fayllari, QR-kodlar va boshqa elektron ma'lumotlar fuqarolik ishlari bo‘yicha muhim dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq ularning haqiqiyligini aniqlash, o‘zgartirilmaganligini tekshirish hamda sudda isbot kuchini belgilash bo‘yicha yagona amaliyot hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli elektron dalillarni yig‘ish, saqlash va baholashning zamonaviy protsessual standartlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

So‘nggi yillarda blokcheyn texnologiyalarining rivojlanishi natijasida "aqlli kontraktlar" (smart contracts) fuqarolik muomalasining yangi shakli sifatida e'tibor qozonmoqda. Aqlli kontrakt – bu shartnoma shartlari kompyuter dasturi ko‘rinishida yozilib, oldindan belgilangan shartlar bajarilganda avtomatik ravishda ijro etiladigan raqamli bitimdir. Bunday shartnomalarda inson omili minimal darajaga tushiriladi, bu esa majburiyatlarning o‘z vaqtida va aniq bajarilishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bank-moliya sohasi, sug‘urta, logistika, elektron to‘lov tizimlari va intellektual mulk obyektlari bilan bog‘liq munosabatlarda samarali qo‘llanilmoqda. Masalan, xaridor mahsulot narxini to‘laganidan so‘ng dastur avtomatik ravishda sotuvchiga to‘lovni o‘tkazishi yoki raqamli aktivga egalik huquqini xaridor nomiga rasmiylashtirishi mumkin.

Biroq smart contractlardan foydalanish qator huquqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kompyuter kodining yuridik kuchi, dasturdagi texnik xatolar uchun javobgarlik, avtomatik bajarilgan bitimni bekor qilish tartibi hamda sun'iy intellekt ishtirokidagi shartnomalarning huquqiy maqomi milliy qonunchilikda yetarli darajada tartibga solinmagan. Shu sababli rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va blokcheyn texnologiyalariga oid

4 https://uncitral.un.org

maxsus fuqarolik-huquqiy normalarni ishlab chiqish O‘zbekiston uchun ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida elektron shartnomalarni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, Fuqarolik kodeksida elektron shartnoma tushunchasi, uning huquqiy tabiati, tuzish tartibi hamda haqiqiylik shartlarini yanada batafsil tartibga soluvchi alohida normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi qonunchilikda elektron hujjatlar va elektron tijoratga oid normalar mavjud bo‘lsa-da, fuqarolik-huquqiy shartnomalarning barcha turlariga tatbiq etiladigan yagona huquqiy mexanizm hali to‘liq shakllanmagan.

Ikkinchidan, elektron dalillarni sudlarda baholash bo‘yicha yagona protsessual standartlarni ishlab chiqish zarur. Elektron pochta xabarlari, messenjerlar orqali yuborilgan yozishmalar, IP-manzillar, server log-fayllari, elektron to‘lov hujjatlari va blokcheyn yozuvlarining daliliy kuchini aniqlash mezonlarini qonunchilikda aniq belgilash sud amaliyotida bir xillikni ta'minlaydi.

Uchinchidan, elektron imzo va elektron identifikatsiya tizimlarini yanada takomillashtirish lozim. Xususan, biometrik autentifikatsiya, ikki bosqichli tasdiqlash (Two-Factor Authentication), elektron identifikatsiyaning zamonaviy usullarini joriy etish orqali elektron shartnomalar xavfsizligini oshirish mumkin. Bu firibgarlik, shaxsni soxtalashtirish va ruxsatsiz shartnoma tuzish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, elektron shartnomalar zamonaviy fuqarolik muomalasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ularning qo‘llanilishi shartnoma tuzish va ijro etish jarayonini soddalashtirib, vaqt va xarajatlarni kamaytiradi, tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshiradi hamda raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasida elektron shartnomalarni tartibga solish bo‘yicha muhim huquqiy asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, ularni zamonaviy texnologiyalar rivoji bilan uyg‘unlashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, Fuqarolik kodeksini elektron shartnomalarga oid yangi normalar bilan boyitish, sud amaliyotini bir xillashtirish, elektron dalillarni baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish hamda xalqaro tajribani milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida"gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to‘g‘risida"gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to‘g‘risida"gi Qonuni.
5. UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce (1996).
6. UNCITRAL – Electronic Commerce. https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce